

HYLAND METADISKURS MODELI ASOSIDA O‘ZBEK ILMIY MATNIDA MUALLIFLIK IDENTIFIKATSIYASI

Eshchanova Mavjuda Xudayorovna

Urganch davlat universiteti,

filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya. Maqolada K. Hyland tomonidan ishlab chiqilgan metadiskurs modelining o‘zbek ilmiy matniga tatbiq etilishi masalasi ko‘rib chiqiladi. Tadqiqotning maqsadi – modelning o‘zaro ta’sir (interactional) kategoriyalari, xususan mualliflik identifikatsiyasini ifodalovchi vositalar (o‘zlik-ifoda, hedjlar, kuchaytiruvchilar) o‘zbek ilmiy matnida qanday til vositalari orqali yuzaga chiqishini aniqlash va model qanday moslashtirilishi kerakligini asoslashdir. Sifat tahlili natijasida o‘zbek tilida mualliflik ifodasi asosan morfologik va shaxssiz sintaktik vositalar orqali amalga oshishi, shuning uchun leksik markazli Hyland modeli o‘zbek tili uchun morfologik-sintaktik jihatdan kengaytirilishi lozimligi ko‘rsatiladi.

Kalit so‘zlar: metadiskurs, Hyland modeli, mualliflik identifikatsiyasi, o‘zlik-ifoda, hedjlar, o‘zbek ilmiy matni, agglutinatив til.

Аннотация. В статье рассматривается вопрос применения модели метадискурса К. Хайланда к узбекскому научному тексту. Цель исследования — выявить, какими языковыми средствами реализуются в узбекском научном тексте интеракционные категории модели, в частности средства выражения авторской идентификации (самоупоминание, хеджи, усилители), и обосновать необходимую адаптацию модели. Качественный анализ показывает, что в узбекском языке авторская идентификация реализуется преимущественно морфологическими и безличными синтаксическими средствами, вследствие чего лексически ориентированная модель Хайланда должна быть расширена в морфолого-синтаксическом плане.

Ключевые слова: метадискурс, модель Хайланда, авторская идентификация, самоупоминание, хеджи, узбекский научный текст, агглютинативный язык.

Annotation. The article addresses the application of K. Hyland's metadiscourse model to Uzbek scientific text. The study aims to determine the linguistic means by which the interactional categories of the model — particularly the markers of authorial identity (self-mention, hedges, boosters) — are realized in Uzbek scientific text, and to substantiate the adaptation the model requires. The qualitative analysis shows that in Uzbek authorial identity is realized mainly through morphological and impersonal syntactic means, so that Hyland's lexically oriented model needs to be extended morphologically and syntactically for Uzbek.

Key words: metadiscourse, Hyland's model, authorial identity, self-mention, hedges, Uzbek scientific text, agglutinative language.

KIRISH. So'nggi o'n yilliklarda ilmiy matn obyektiv, shaxssiz va befarq bayon sifatida emas, balki muallif va o'quvchi o'rtasidagi o'zaro ta'sirga asoslangan ishonitiruvchi faoliyat sifatida talqin qilinmoqda [4. 2005:B.173]. Ushbu qarash doirasida matnda muallifning ko'rinuvchanligi va o'quvchi bilan aloqasini ta'minlovchi til vositalarini tavsiflashda metadiskurs tushunchasi markaziy o'rin egalladi. Metadiskursning dastlabki tasniflari U. Vande Kopple [7. 1985] va A. Crismore hamda uning hammualliflari [1. 1993] tomonidan taklif etilgan bo'lsa-da, uning eng ta'sirchan va izchil modeli K. Hyland tomonidan ishlab chiqildi [3. 2004; 4. 2005].

Hyland modeli metadiskursni ikki guruhga ajratadi: matnni tashkil etuvchi interaktiv (interactive) vositalar hamda muallif-o'quvchi munosabatini ifodalovchi o'zaro ta'sir (interactional) vositalari. Aynan ikkinchi guruh – o'zlik-ifoda (self-mention), hedjlar, kuchaytiruvchilar (boosters), munosabat markerlari va jalb qilish vositalari – mualliflik identifikatsiyasini, ya'ni muallifning matndagi ovozi va pozitsiyasini shakllantiradi [5. 2001:B.207]. Biroq bu model ingliz tili materiali

asosida yaratilgan va u asosan alohida leksik birliklarni (I, we, olmoshlar, modal soʻzlar) sanashga tayanadi.

Oʻzbek tili esa agglutinatив tuzilishga ega boʻlib, unda shaxs-son, modallik va munosabat koʻpincha morfologik vositalar hamda shaxssiz konstruksiyalar orqali ifodalanadi. Shu bois ingliz tili uchun ishlab chiqilgan leksik markazli model oʻzbek ilmiy matniga toʻgʻridan-toʻgʻri, oʻzgarishsiz tatbiq etilishi mumkin emas. Oʻzbek tilshunosligida ilmiy matn pragmatikasi [8. 2001] va matn lingvistikasi [9. 2011] oʻrganilgan boʻlsa-da, metadiskurs modelining oʻzbek ilmiy matniga tizimli tatbiqi maxsus tadqiq etilmagan. Mazkur maqolaning maqsadi – Hyland metadiskurs modelining oʻzaro taʼsir kategoriyalari oʻzbek ilmiy matnida qanday til vositalari orqali yuzaga chiqishini aniqlash va modelni oʻzbek tili sharoitiga moslashtirish yoʻllarini asoslashdir. Tadqiqot quyidagi savollarga javob izlaydi: (1) Hyland modelining har bir oʻzaro taʼsir kategoriyasi oʻzbek ilmiy matnida qanday realizatsiya qilinadi? (2) Model oʻzbek tili uchun qanday moslashtirishni talab etadi?

MATERIAL VA METODLAR. Tadqiqotda korpusga asoslangan (corpus-informed) tavsifiy-tahliliy yondashuv qoʻllanildi. Nazariy asos sifatida Hyland va Tse [3. 2004] hamda Hyland [4. 2005] taklif etgan metadiskurs taksonomiyasi olindi. Ushbu taksonomiya interaktiv vositalarni (oʻtish vositalari, ramka markerlari, ichki havolalar, dalil vositalari, izohlovchi glossalar) va oʻzaro taʼsir vositalarini (hedjlar, kuchaytiruvchilar, munosabat markerlari, oʻzlik-ifoda, jalb qilish vositalari) qamrab oladi.

Material sifatida gumanitar va ijtimoiy fanlarga oid oʻzbek tilidagi ilmiy maqola matnlaridan illyustrativ (namunaviy) tanlov koʻrib chiqildi. Tahlil bosqichlari quyidagicha boʻldi: matndagi metadiskurs markerlarini aniqlash; ularni Hyland kategoriyalari boʻyicha tasniflash; har bir kategoriyaning oʻzbek tiliga xos realizatsiya usullarini qayd etish. Ushbu maqolada tahlil sifat (kvalitativ) xarakterga ega boʻlib, u kategoriyalarning til vositalari orqali ifodalanish usullarini tavsiflashga qaratilgan. Markerlarning miqdoriy taqsimoti (chastota va foiz koʻrsatkichlari) keyingi toʻliq

korpus tadqiqotida – o‘zbek, ingliz-parallel va ona-ingliz subkorpuslari asosida – aniqlanishi ko‘zda tutilgan.

NATIJALAR. Tahlil o‘zbek ilmiy matnida Hyland modelining barcha asosiy kategoriyalari mavjudligini, biroq ularning ifoda vositalari ingliz tilidagidan sezilarli farq qilishini ko‘rsatdi. Quyida o‘zaro ta’sir kategoriyalari – mualliflik identifikatsiyasi bilan bevosita bog‘liq guruh – tavsiflanadi.

O‘zlik-ifoda (self-mention). O‘zbek ilmiy matnida muallif ishtiroki, ingliz tilidagi ochiq “I” dan farqli o‘laroq, ko‘pincha ko‘plik “biz” (yakka muallif bo‘lsa ham) hamda fe’lning shaxs-son qo‘shimchalari orqali ifodalanadi: “Ushbu maqolada biz mualliflik ifodasini tahlil qilamiz”. Ko‘p hollarda esa muallif ataylab yashiriladi – shaxssiz va majhul konstruksiyalar orqali: “Tadqiqotda qiyosiy metoddan foydalanildi”, “Natijalar shuni ko‘rsatadiki...”. Demak, o‘zbek tilida o‘zlik-ifoda leksik emas, balki morfologik (-miz, -di) va sintaktik (majhullik) hodisa sifatida namoyon bo‘ladi.

Hedjlar (mo‘tadillashtiruvchilar). Muallif da’vosini yumshatuvchi vositalar modal so‘zlar (“ehtimol”, “balki”), modal konstruksiyalar (“deb hisoblash mumkin”, “deyish o‘rinli”) va fe’l shakllari (“ko‘rinadiki”, “-sa kerak”) orqali beriladi: “Bu holatni til va madaniyat farqi bilan izohlash mumkin”.

Kuchaytiruvchilar (boosters). Muallif ishonchini ta’kidlovchi vositalar sifatida “shubhasiz”, “aniqki”, “albatta”, “ma’lumki” kabi birliklar qo‘llanadi: “Shubhasiz, mualliflik ifodasi madaniyatga bog‘liq hodisadir”.

Munosabat markerlari (attitude markers). Muallifning baholovchi munosabati “muhihi shundaki”, “qiziqarli tomoni”, “afsuski”, sifat va ravishlar (“muhihi”, “ahamiyatli”) orqali ifodalanadi.

Jalb qilish vositalari (engagement markers). O‘quvchini matnga jalb etish “ma’lumki”, “ko‘rib turganimizdek”, “e’tibor beraylik”, birgalik fe’l shakllari (“ko‘raylik”, “taqqoslaymiz”) orqali amalga oshiriladi.

Интерактив vositalar guruhi ham faol ishlatiladi: o'tish vositalari ("shuning uchun", "biroq", "demak"), ramka markerlari ("birinchidan... ikkinchidan", "xulosa qilib aytganda"), ichki havolalar ("yuqorida ta'kidlanganidek", "1-jadvalda"), dalil vositalari ("[1]ga ko'ra", "Hylandning fikricha") va izohlovchi glossalar ("ya'ni", "masalan"). Quyidagi jadvalda Hyland kategoriyalari va ularning o'zbek tilidagi asosiy realizatsiya usullari umumlashtirilgan.

1-jadval. Hyland o'zaro ta'sir kategoriyalarining o'zbek tilidagi realizatsiyasi

Kategoriya	O'zbek tilidagi realizatsiya	Namuna
O'zlik-ifoda	"biz", -miz; majhul -il/-in-	foydalanildi; tahlil qilamiz
Hedjlar	modal so'z va konstruksiyalar	izohlash mumkin; ehtimol
Kuchaytiruvchilar	ta'kid so'zlari	shubhasiz; albatta
Munosabat markerlari	baholovchi sifat/ravish	muhimi shundaki; afsuski
Jalb qilish	birgalik fe'l shakllari	ko'raylik; ma'lumki

MUHOKAMA. Natijalar Hyland modelining o'zbek ilmiy matniga printsiptial jihatdan tatbiq etilishi mumkinligini, biroq muhim moslashtirish talab qilishini ko'rsatadi. Asosiy farq tahlil birligida namoyon bo'ladi: ingliz tilida metadiskurs asosan alohida leksik birliklar (olmoshlar, modal so'zlar) sifatida sanaladi, o'zbek tilida esa u ko'p hollarda morfologik qo'shimchalar (-miz, -di) va sintaktik qurilmalar (shaxssizlik, majhullik) darajasida amalga oshadi. Binobarin, Hyland taksonomiyasi o'zbek tili uchun morfologik-sintaktik realizatsiya qatlami bilan kengaytirilishi kerak.

Alohida e'tiborga loyiq hodisa – muallifni ataylab yashirish (author-effacement). O'zbek ilmiy matnida shaxssiz va majhul konstruksiyalarning keng qo'llanishi Hyland modelida "o'zlik-ifodaning yo'qligi" emas, balki o'zlik-ifodaning maxsus strategiyasi sifatida talqin qilinishi lozim. Bu hodisa o'zbek akademik an'anasining rus ilmiy uslubi ta'siri ostida shaxssizlik va kollektiv "biz" ni afzal ko'rishi bilan bog'liq bo'lib, mualliflik ishtirokining madaniy-lisoniy o'zgaruvchanligi haqidagi qiyosiy kuzatishlar bilan uyg'undir [10. 2000]. Ushbu topilma o'zbek va ingliz tilidagi annotatsiyalarni qiyosiy korpus asosida o'rganishda mualliflik identifikatsiyasini nafaqat leksik, balki morfologik-sintaktik darajada kodlash zarurligini ko'rsatadi.

Tadqiqotning cheklovi shundaki, keltirilgan natijalar sifat tahliliga asoslangan bo'lib, illyustrativ xarakterga ega. Kategoriyalarning miqdoriy taqsimoti va sohaviy hamda tillararo farqlari to'liq korpus tadqiqotida statistik jihatdan tasdiqlanishi zarur.

XULOSA. O'tkazilgan tahlil Hyland metadiskurs modelining o'zbek ilmiy matnini o'rganishda samarali nazariy asos bo'la olishini, ammo agglutinatив o'zbek tili uchun morfologik-sintaktik jihatdan moslashtirilishi zarurligini ko'rsatdi. O'zbek tilida mualliflik identifikatsiyasi asosan "biz" ko'pligi, fe'ning shaxs-son qo'shimchalari hamda shaxssiz-majhul konstruksiyalar orqali ifodalanadi; shaxssizlik esa muallifni yashirishning maxsus strategiyasi sifatida qaraladi. Shu asosda taklif etilgan moslashtirilgan taksonomiya – leksik markerlarga morfologik-sintaktik realizatsiya qatlamini qo'shgan model – muallifning keyingi qiyosiy-korpus tadqiqotlari uchun metodologik apparat vazifasini bajaradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Crismore A., Markkanen R., Steffensen M.S. Metadiscourse in persuasive writing: A study of texts written by American and Finnish university students // Written Communication. – 1993. – Vol. 10, No. 1. – P. 39–71.
2. Hyland K. Disciplinary Discourses: Social Interactions in Academic Writing. – London: Longman, 2000. – 211 p.

3. Hyland K., Tse P. Metadiscourse in academic writing: A reappraisal // *Applied Linguistics*. – 2004. – Vol. 25, No. 2. – P. 156–177.
4. Hyland K. Stance and engagement: a model of interaction in academic discourse // *Discourse Studies*. – 2005. – Vol. 7, No. 2. – P. 173–191.
5. Hyland K. Humble servants of the discipline? Self-mention in research articles // *English for Specific Purposes*. – 2001. – Vol. 20, No. 3. – P. 207–226.
6. Hyland K. *Metadiscourse: Exploring Interaction in Writing*. – London: Continuum, 2005. – 230 p.
7. Vande Kopple W.J. Some exploratory discourse on metadiscourse // *College Composition and Communication*. – 1985. – Vol. 36, No. 1. – P. 82–93.
8. Hakimov M. O‘zbek tilida matnning pragmatik talqini: Filologiya fanlari doktori diss. – Toshkent, 2001. – 262 b.
9. Muhamedova S., Saparniyozova M. *Matn lingvistikasi*. – Toshkent, 2011. – 120 b.
10. Vassileva I. *Who is the Author? A Contrastive Analysis of Authorial Presence in English, German, French, Russian and Bulgarian Academic Discourse*. – Sankt Augustin: Asgard, 2000. – 261 p.
11. Ädel A. *Metadiscourse in L1 and L2 English*. – Amsterdam: John Benjamins, 2006. – 243 p.
12. Mamatov A.E. *Zamonaviy lingvistika*. – Toshkent: Tafakkur avlodi, 2020. – 168 b.